



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 / ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOB VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALLASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин кизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahyoyevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	<i>O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI</i> <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	<i>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI</i> <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	<i>O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH</i> <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	<i>LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149
41	<i>SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI</i> <i>Djumaniyazov Shavkat Raximovich</i>	151
42	<i>O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</i> <i>Matkarimova Iroda Muxtorovna</i>	155

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiy Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturpova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Matkarimova Iroda Muxtorovna

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi
Bojxona instituti xodimi
e-mail:matkarimovairoda5259@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bojxona ma'muriyatchiligining institutsional mexanizmi tahlil qilinadi. Muallif tomonidan bojxona ma'muriyatchiligi va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi tizimli aloqalar institutsional iqtisodiyot nazariyasi asosida o'rganilgan. Tadqiqotda Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini to'g'risidagi kelishuvi talablari, Kodeks Alimentarius standartlari hamda Jahon bojxona tashkilotining Kyoto konvensiyasi va SAFE standartlar tizimi qoidalarining O'zbekiston milliy qonunchiligiga integratsiyalashuv darajasi baholangan. O'zbekiston Respublikasining 2025-yilda qabul qilingan "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni hamda "Yagona darcha" tizimi faoliyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida bojxona va Sanitariya va fitosanitariya organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, xavfga asoslangan boshqaruvni takomillashtirish, raqamlashtirishni kengaytirish hamda institutsional muvofiqlikni oshirish yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, bojxona ma'muriyatchiligi, institutsional mexanizm, Sanitariya va fitosanitariya (SPS) kelishuvi, xavfga asoslangan yondashuv, "Yagona darcha" tizimi, raqamlashtirish.

Abstract: This article analyzes the institutional mechanism of customs administration in ensuring food safety in the Republic of Uzbekistan. The author studied the systemic relationship between customs administration and food safety based on the theory of institutional economics. The study assessed the level of integration of the requirements of the WTO Agreement on Sanitary and Phytosanitary Measures, Codex Alimentarius standards, and the provisions of the Kyoto Convention and the SAFE standards system of the World Customs Organization into the national legislation of Uzbekistan. The Law of the Republic of Uzbekistan "On Food Safety" adopted in 2025 and the activities of the "Single Window" system were analyzed. Based on the results of the study, directions for strengthening cooperation between customs and sanitary and phytosanitary authorities, improving risk-based management, expanding digitalization, and increasing institutional coherence were proposed.

Keywords: food safety, customs administration, institutional mechanism, Sanitary and Phytosanitary (SPS) Agreement, risk-based approach, Single Window system, digitalization.

Абстрактный: В данной статье анализируется институциональный механизм таможенного управления в обеспечении безопасности пищевых продуктов в Республике Узбекистан. Автор исследовал системную взаимосвязь между таможенным управлением и безопасностью пищевых продуктов на основе теории институциональной экономики. В исследовании оценивался уровень интеграции требований Соглашения ВТО о санитарно-фитосанитарных мерах, стандартов Кодекса Алиментариус, положений Киотской конвенции и системы стандартов SAFE Всемирной таможенной организации в национальное законодательство Узбекистана. Проанализированы Закон Республики Узбекистан «О безопасности пищевых продуктов», принятый в 2025 году, и деятельность системы «Единое окно». На основе результатов исследования предложены направления укрепления сотрудничества между таможенными и санитарно-фитосанитарными органами, совершенствования управления рисками, расширения цифровизации и повышения институциональной согласованности.

Ключевые слова: безопасность пищевых продуктов, таможенное администрирование, институциональный механизм, Соглашение о санитарных и фитосанитарных мерах (СФС), риск-ориентированный подход, система «единого окна», цифровизация.

Kirish (Введение/Introduction).

Oziq-ovqat xavfsizligi zamonaviy dunyoda milliy xavfsizlikning strategik tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyoda 733 million kishi surunkali ochlikdan aziyat chekkan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2019-yildagi 613 milliondan sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, global oziq-ovqat mahsulotlari savdosi hajmi yildan yilga oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda xalqaro savdo tartib-qoidalarining ahamiyatini keskin oshirmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi bojxona ma'muriyatchiligi va xalqaro savdo tartib-qoidalarini bilan chambarchas bog'liq. Oziq-ovqat mahsulotlari import-eksporti bojxona nazorati orqali tartibga solinar ekan, bojxona organlarining samarali faoliyati bevosita aholining sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Vartanova ta'kidlaganidek, bojxona nazorati milliy xavfsizlik tizimining ajralmas elementi sifatida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bojxona ma'muriyatchiligining institutsional mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilardan iborat:

- 1) oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bojxona organlari rolining nazariy jihatlari ochib berish;
- 2) xalqaro standartlar va milliy qonunchilikning uyg'unlik darajasini baholash;
- 3) "Yagona darcha" tizimi va bojxona ekspertizasi faoliyatini tahlil qilish;
- 4) bojxona va Sanitariya va fitosanitariya organlari hamkorligini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasi 2025-yilda "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi va "Yagona darcha" tizimini joriy etdi. Biroq bojxona ma'muriyatchiligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi Sanitariya va fitosanitariya organlari o'rtasidagi institutsional hamkorlik mexanizmlari hali yetarli darajada takomillashmagan. Bojxona ekspertizasi va "Yagona darcha" tizimi integratsiyasi masalasi o'z yechimini kutmoqda. Shu sababli, bojxona

ma'muriyatchiligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda dunyo mamlakatlari oldida turgan eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi, logistika zanjirlaridagi uzilishlar, geosiyosiy keskinliklar va xalqaro savdo cheklolari oziq-ovqat mahsulotlari harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan bo'xona ma'muriyatchiligi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi nafaqat mahsulotlarning yetarli hajmda mavjudligi, balki ularga iqtisodiy va jismoniy kirish imkoniyati, sifat va xavfsizlik talablariga javob berishi hamda ta'minotning barqarorligini o'z ichiga olishi ta'kidlangan [2]. Ushbu jarayonlarda bo'xona organlari import va eksport operatsiyalarini tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya nazoratini muvofiqlashtirish hamda noqonuniy mahsulotlar kirib kelishining oldini olish orqali muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda Jahon bo'xona tashkiloti (WCO) tomonidan bo'xona boshqaruvining raqamlashtirilishi, xavflarni boshqarish tizimlarini joriy etish va "aqli chegaraga" konsepsiyalarini rivojlantirish orqali xalqaro savdo xavfsizligini oshirish bo'yicha qator tavsiyalar ishlab chiqilgan [3]. Tadqiqotchilar ushbu mexanizmlar oziq-ovqat mahsulotlarining chegaradan tez va xavfsiz o'tishini ta'minlashga xizmat qilishini qayd etadilar.

FAO ekspertlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda oziq-ovqat xavfsizligining samarali institutsional boshqaruvi davlat organlari, bo'xona xizmatlari, veterinariya va fitosanitariya nazorati idoralari hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liqligi asoslab berilgan [4]. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'xona nazoratining samaradorligi oziq-ovqat narxlarini barqarorligi va ichki bozor muvozanatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

OECD tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda savdoni yangillashtirish choralari, jumladan bo'xona rasmiylashtiruv muddatlarini qisqartirish va elektron deklaratsiyalash tizimlarini keng joriy etish oziq-ovqat mahsulotlari import xarajatlarini kamaytirishi va ta'minot zanjirlarining uzluksizligini ta'minlashi ko'rsatib o'tilgan [5]. Bu esa milliy oziq-ovqat xavfsizligi darajasini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari mamlakatning 2030-yilgacha bo'lgan taraqqiyot strategiyasi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi va bo'xona tizimini modernizatsiya qilish dasturlarida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [6]. Mamlakatda bo'xona ma'muriyatchiligini takomillashtirish, "Yagona darcha" tizimini rivojlantirish va xavflarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bo'xona ma'muriyatchiligining institutsional samaradorligi tashqi savdo faoliyati ishtirokchilariga yaratilayotgan qulayliklar, nazorat tadbirlarining shaffofligi va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan belgilanishi ta'kidlangan [7]. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksporti bo'yicha ma'lumotlar almashinuvining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi mavjud muammolardan biri sifatida qayd etilgan.

Bo'xona ma'muriyatchiligida risklarni boshqarish tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Tadqiqotchilar bunday yondashuvlar noqonuniy savdo operatsiyalarini aniqlash samaradorligini oshirishi, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi ustidan nazoratni kuchaytirishi mumkinligini asoslab berganlar [8].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bo'xona ma'muriyatchiligining institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, idoralararo integratsiyani kuchaytirish va xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimlarini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [9].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqotda institutsional iqtisodiyot nazariyasi asosiy metodologik asos sifatida qabul qilingan. Institutsional yondashuv iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ularni tartibga soluvchi yo'nalishlar – rasmiy qoidalar va norasmiy cheklolar hamda ularning ijro mexanizmlari nuqtai nazaridan tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu yondashuv bo'xona ma'muriyatchiligini uning normativ-huquqiy bazasi, tashkiliy tuzilmasi, idoralararo hamkorlik

amaliyoti va transaktsion xarajatlar nuqtai nazaridan kompleks o'rganish imkonini beradi.

Tizimli tahlil oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimining tarkibiy elementlari, ular o'rtasidagi aloqalar va tizimning barqarorligini o'rganishda qo'llanilgan. Xavfga asoslangan yondashuv esa bo'xona organlari tomonidan cheklangan resurslarni eng yuqori xavfga ega bo'lgan tovarlar va operatsiyalarga yo'naltirish orqali nazorat samaradorligini oshirish mexanizmlarini tahlil qilishda qo'llanilgan.

Tahlil jarayonida quyidagi usullar qo'llanilgan:

1) normativ-huquqiy hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish – xalqaro standartlar va milliy qonunchilikning uyg'unlik darajasini baholash uchun;

2) qiyosiy tahlil – O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasini taqqoslash uchun;

3) statistik tahlil – oziq-ovqat mahsulotlari tashqi savdosi dinamikasi va tarkibini o'rganish uchun;

4) SWOT-tahlil – amaldagi mexanizmlarning kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyat va tahdidlarni aniqlash uchun.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Oziq-ovqat xavfsizligi va bo'xona ma'muriyatchiligi o'rtasidagi tizimli aloqalar. Tadqiqot natijalari bo'xona ma'muriyatchiligi va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi bog'liqlikning uchta asosiy yo'nalishini aniqlash imkonini berdi.

Birinchi yo'nalish – bo'xona nazorati orqali xavfli mahsulotlarning ichki bozorga kirishining oldini olish. FAO ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro savdoda harakatlanuvchi oziq-ovqat mahsulotlarining 20 foizgacha qismi

sanitariya-fitosanitariya talablariga javob bermaydi[7]. Bo'xona organlari tomonidan amalga oshiriladigan hujjatli nazorat va jismoniy tekshiruvlar ushbu mahsulotlarni aniqlash va ularni bozorga kirishidan oldin to'xtatish imkonini beradi.

Ikkinchi yo'nalish – bo'xona to'lovlar orqali oziq-ovqat bozorini tartibga solish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishda bo'xona bojining nol stavkasi

2027-yil 1-yanvarigacha uzaytirilgan. Ushbu chora oziq-ovqat mahsulotlari narxini barqarorlashtirish va aholining oziq-ovqatga iqtisodiy qulayligini ta'minlashga qaratilgan.

Uchinchi yo'nalish – bo'xona statistikasi orqali oziq-ovqat bozori monitoringi. Bo'xona organlari tomonidan yuritiladigan tashqi savdo statistikasi oziq-ovqat mahsulotlari import-eksporti hajmi, tarkibi va geografik yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va monitoring qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi. O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilgan holda ishlab chiqilgan. Qonunning

2-moddasiga ko'ra, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi belgilangan.

Qonun doirasida quyidagi asosiy normalar belgilangan:

a) Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari: aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, oziq-ovqat xavfsizligining kafolatlangan zaxiralarini shakllantirish va saqlash, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini va ularning xavfsizligini ta'minlash;

b) Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol normalarini belgilash va ularni mamlakatning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlariga asosan har 3 yilda qayta ko'rib chiqish;

c) Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi;

d) Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari.

Biroq tahlil shuni ko'rsatadiki, Qonunda bo'xona organlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi roli yetarli darajada aniq belgilanmagan. Bo'xona organlarining vazifalari bo'xona qonunchiligi bilan tartibga solinar ekan, oziq-ovqat xavfsizligi qonunchiligida bo'xona nazorati va SPS choralari o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlari to'liq aks ettirilmagan.

"Yagona darcha" tizimi faoliyati tahlili. Muxtorov, Xakimova va Saidov tadqiqotiga ko'ra, Bo'xona qo'mitasi tomonidan joriy etilgan "Yagona darcha" tizimi quyidagi natijalarni ko'rsatgan:

a) Tizimga 12 ta vakolatli organ integratsiyalashgan bo'lib, 85 868 dan ortiq tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi ro'yxatdan o'tgan;

b) 2023-yilda tizim orqali 674 440 ta sertifikat va ruxsatnomalar masofaviy tarzda taqdim etilgan;

c) Tizim bo'yxona rasmiylashtiruvini vaqtini qisqartirish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkonini bergan.

Biroq mualliflar "Yagona darcha" tizimi va bo'yxona ekspertizasi integratsiyasi masalasi hal etilmaganligini qayd etganlar. Bo'yxona ekspertizasi "Yagona darcha" tizimiga to'liq integratsiyalanmaganligi sababli, sertifikatlash va ruxsat berish jarayonlarida ma'muriy to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Idoralararo hamkorlik holati. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda bo'yxona organlari va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi SPS organlari (veterinariya, fitosanitariya, sanitariya-epidemiologiya xizmatlari) o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat quyidagi omillar bilan izohlanadi:

a) Turli idoralarning o'z vakolat doirasida ish yuritishi va ular o'rtasida ma'lumot almashinuvining rasmiylashtirilmaganligi;

b) Bo'yxona va SPS organlari tomonidan qo'llaniladigan mahsulot kodlash tizimlari va xavflarni baholash metodologiyalarining turlicha ekanligi;

c) Elektron hujjat aylanishi tizimlarining to'liq integratsiyalanmaganligi.

Xalqaro miqyosda ham ushbu muammo dolzarb bo'lib qolmoqda. FAO ta'kidlaganidek, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'yxona va SPS organlari o'rtasidagi hamkorlik juda past darajada, vazifalar alohida va har bir organ o'z vakolati doirasida ish amalga oshiriladi. Munosabatlar ko'pincha qarama-qarshilik xarakteriga ega bo'lib qoladi.

Xavfga asoslangan yondashuv joriy etilishining holati. Bo'yxona qo'mitasi tomonidan xavfni boshqarish tizimi joriy etilgan bo'lib, bo'yxona organlari faoliyatida nazorat, tahlil va xavflarni baholash tizimlarining zamonaviy shakllaridan foydalanish ko'lamini kengaytirilmoqda. Xavf aniqlanmagan taqdirda, bo'yxona yuk deklaratsiyalari avtomatik rasmiylashtiruvdan o'tkaziladi. 2025-yilda WCO tomonidan SAFE standartlar tizimining yangilangan versiyasi e'lon qilingan bo'lib, bu xavfga asoslangan boshqaruvni yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. [10]

Biroq oziq-ovqat mahsulotlari importida qo'llaniladigan xavf mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bo'yxona xavf indekslari – bo'yxona to'lovlarini kamaytirib ko'rsatish, kontrabanda va SPS xatarlari – mikrobiologik ifloslanish, pestitsidlar miqdorining oshib ketishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ularni kompleks baholash mexanizmlari mavjud emas.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston bo'yxona ma'muriyatchiligining institutsional mexanizmi quyidagi zaif tomonlarga ega ekanligini ko'rsatadi:

a) *Normativ-huquqiy darajadagi kamchiliklar.* "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunda bo'yxona organlarining roli yetarli darajada aniq belgilanmagan. Bu bo'yxona va SPS organlari o'rtasidagi vazifalar taqsimotida noaniqlik va ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Taqqoslash uchun, Rossiya Federatsiyasida "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Doktrinada bo'yxona nazorati oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlaridan biri sifatida alohida belgilangan[8].

b) *Tashkiliy darajadagi bo'shliqlar.* "Yagona darcha" tizimiga 12 ta vakolatli organ integratsiyalashgan bo'lsa-da, bo'yxona ekspertizasi va sertifikatlash jarayonlari o'rtasidagi integratsiya masalasi hal etilmagan. Bu esa ma'muriy to'siqlarning saqlanib qolishiga olib keladi. Makhovikova va Ermolaev ta'kidlaganidek, bo'yxona xizmatlarini raqamlashtirishning samaradorligi barcha ishtirokchilarning axborot tizimlarining to'liq integratsiyalashuviga bog'liq.

c) *Metodologik darajadagi muammolar.* Bo'yxona va SPS organlari tomonidan qo'llaniladigan mahsulot kodlash tizimlari va xatarlarni baholash metodologiyalarining turlichaligi ular o'rtasida ma'lumot almashinuvini qiyinlashtiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, Yangi Zelandiya tomonidan ishlab chiqilgan E-cert tizimi SPS sertifikatlarini elektron ma'lumot almashinuvini orqali oldindan bo'yxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq ushbu tizim aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun keng qo'llab-quvvatlanmasdan turib joriy etish imkoniyati cheklangan.

Tadqiqotda O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi taqqoslandi.

Yevropa Ittifoqida bo'yxona ma'muriyatchiligi Yagona bo'yxona kodeksi bilan tartibga solinadi. Ushbu kodeks oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bo'yxona va SPS organlari o'rtasidagi hamkorlikni, xususan, xavfga asoslangan nazorat va elektron ma'lumot almashinuvini belgilaydi. Yevropa Ittifoqida import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari TRACES (Trade Control and Expert System) tizimi orqali kuzatiladi. Ushbu tizim veterinariya va fitosanitariya sertifikatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish va bo'yxona organlari bilan real vaqt rejimida ma'lumot almashish imkonini beradi.

AQShda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bo'yxona va chegara himoyasi (CBP) hamda Oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi (FDA) hamkorligi muhim o'rin tutadi. FDA tomonidan import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini xatarlar darajasiga qarab tasniflash va maqsadli tekshiruvlarni amalga oshirish tizimi joriy etilgan. Bu bo'yxona resurslarini eng yuqori xavfga ega bo'lgan mahsulotlarga yo'naltirish imkonini beradi.

Yangi Zelandiya tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Yangi Zelandiya tomonidan ishlab chiqilgan E-cert tizimi SPS sertifikatlarini elektron ma'lumot almashinuvini orqali bo'yxona rasmiylashtiruvini avtomatlashtirish imkonini beradi. Ushbu tizim bo'yxona va SPS organlari o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashishni ta'minlaydi va sertifikatlar haqiqiylikni avtomatik tekshirish imkonini beradi.

O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining TRACES tizimi va AQShning xavflarni boshqarish tizimi tajribasi mo'ljallanishi mumkin. Biroq ushbu tizimlarni joriy etishda mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari, raqamlashtirish darajasi va institutsional salohiyati hisobga olinishi lozim.

Taklif etilayotgan takomillashtirish yo'nalishlari. Tadqiqot natijalari va xorijiy tajriba asosida bo'yxona ma'muriyatchiligining institutsional mexanizmini takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlari ishlab chiqildi:

a) *Normativ-huquqiy darajadagi takomillashtirishlar.* "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritib, bo'yxona organlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi roli va vakolatlarini aniq belgilash zarur. Xususan, bo'yxona organlarining SPS choralarini amalga oshirishdagi ishtiroki, bo'yxona va SPS organlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuv tartibi qonuniy jihatdan mustahkamlanishi lozim. Taqqoslash uchun, Rossiya Federatsiyasida "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Doktrinada bo'yxona nazorati oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlaridan biri sifatida alohida belgilangan.

b) *"Yagona darcha" tizimi va bo'yxona ekspertizasi integratsiyasi.* Bo'yxona ekspertizasi natijalarini "Yagona darcha" tizimiga to'liq integratsiyalash va barcha ruxsat beruvchi hujjatlarni yagona elektron platforma orqali rasmiylashtirish joriy etilishi lozim. Bu ma'muriy to'siqlarni kamaytiradi, rasmiylashtiruv vaqtini qisqartiradi va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Mukhtorov, Khakimova va Saidov ham ushbu yo'nalishda ishlarni davom ettirish zarurligini ta'kidlaganlar.

c) *Xavfga asoslangan boshqaruvni takomillashtirish.* Oziq-ovqat mahsulotlari importida bo'yxona xatarlari va SPS xatarlarini kompleks baholash mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bunda Kodeks Alimentarius tomonidan tavsiya etilgan HACCP (Xatarlar tahlili va tanqidiy nazorat nuqtalari) tizimining uslubiy tamoyillarini bo'yxona nazoratiga moslashtirish maqsadga muvofiq. Xavf mezonlari va ularni baholash ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqilishi lozim.

d) *Raqamlashtirishni kengaytirish.* 2025-yil 1-iyuldan boshlab veterinariya va fitosanitariya sohasida barcha tartibotlar elektron shaklga o'tkazilganligini hisobga olib, bo'yxona ma'muriyatchiligida raqamli texnologiyalarni yanada kengaytirish zarur. Xususan, sun'iy intellekt elementlaridan foydalangan holda xavfni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish, hujjatlarni avtomatik tekshirish tizimini joriy etish, ma'lumotlar analitikasi asosida xatarlarni prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

e) *Idoralararo hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish.* Bo'yxona, veterinariya, fitosanitariya va sanitariya-epidemiologiya organlari o'rtasida tizimli hamkorlikni ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish lozim. Bunda idoralararo axborot almashinuvining yagona elektron platformasini yaratish, xatarlarni birgalikda baholash va nazorat rejalarini muvofiqlashtirish, bo'yxona postlarida SPS organlari mutaxassislarining doimiy ishtirokini ta'minlash kabi choralar ko'rilishi mumkin.

f) *Institutsional salohiyatni oshirish.* Bo'yxona va SPS organlari xodimlarining oziq-ovqat xavfsizligi, SPS choralarini va xavfni boshqarish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bunda xalqaro tashkilotlar (FAO, WTO, WCO) tomonidan taklif etilayotgan o'quv modullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bo'yxona ma'muriyatchiligining institutsional mexanizmi tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

Oziq-ovqat xavfsizligi va bo'yxona ma'muriyatchiligi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, bo'yxona nazorati orqali xavfli mahsulotlarning ichki bozorga kirishining oldini olish, bo'yxona to'lovlari orqali bozorni tartibga solish va bo'yxona statistikasi orqali monitoring amalga oshiriladi. Adeyemo va Aloysius tomonidan empirik tarzda isbotlanganidek, davlat

boshqaruvi va bojxona ma'muriyatchiligi samaradorligi oziq-ovqat xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston 2025-yilda "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish orqali sohadagi huquqiy bazani xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish yo'lida muhim qadam tashladi. Biroq Qonunda bojxona organlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi roli yetarli darajada aniq belgilanmagan.

"Yagona darcha" tizimi bojxona rasmiylashtiruvini vaqtini qisqartirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkonini

bergan bo'lsa-da, bojxona ekspertizasi va "Yagona darcha" tizimi integratsiyasi masalasi hal etilmagan.

Bojxona organlari va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi SPS organlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu normativ-huquqiy darajadagi noaniqliklar, metodologik tafovutlar va axborot tizimlarining integratsiyalanmaganligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- 1 FAO. The State of Food Security and Nutrition in the World 2024. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2024.
- 2 United Nations. Sustainable Development Goals Report 2024. New York: United Nations, 2024.
- 3 World Customs Organization (WCO). Annual Report 2024–2025. Brussels: WCO, 2025.
- 4 FAO. Food Import Dependency and Food Security Assessment Report. Rome: FAO, 2023.
- 5 OECD. Trade Facilitation Indicators: Monitoring Policies up to 2025. Paris: OECD Publishing, 2025.
- 6 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida. PF-158-son Farmon, 2023.
- 7 Abdullayev A., Islomov B. Bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, 2024. №4.
- 8 World Bank. Digital Transformation of Customs Administration and Trade Facilitation. Washington DC: World Bank Publications, 2024.
- 9 Asian Development Bank (ADB). Food Security and Trade Logistics in Central Asia. Manila: ADB, 2024.
10. Shirinov Uchqun Abduxalilovich, & Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi. (2026). Xalqaro standartlar asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish. Insurance Market of Uzbekistan, 3(3), 33–36. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/431